MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
AVGUST 8-SON, III-QISM



Milliy nashrlar

OAK: https://oak.uz/pages/4802

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ НА ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ 9
Мусаев Озоджон Шавкат Огли
MAHALLIY BUDJETNING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLARINI BAHOLASH 15
Uktamov Fazliddin Faxriddinovich
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РОЗНИЧНЫХ ОПЕРАЦИЙ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ 19
Султонмуродов Сардорбек Баходирович
OLIY TA'LIM TIZIMI RIVOJLANISHINING HUDUDIY IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA) 24
Egamov Sevinchbek
TIJORAT BANKLARINING TO'LOV XIZMATLARI AMALIYOTI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI 29
B.B. Xanaliyev
SAMARQAND VILOYATIDA TURISTIK KORXONALAR INNOVASION RIVOJLANISHINI SSENARIYLI PROGNOZLASH 33
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna
MILLIY MODA ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA UNI O'ZLASHTIRISH SHARTLARI 38
Yusupova Moxinur Farxod qizi
HUDUDLAR INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 48
Umaraliyev Sanjar Sultonaliyevich
DAVLAT XARIDLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARINI TAKOMILLASHTIRISH 53
Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich
«ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ В УЗБЕКИСТАНЕ» 62
Хайруллаева Малика Шухратжон кизи
EMPIRICAL EVALUATION OF THE FACTORS ASSOCIATED WITH APPLICANT BEHAVIOUR IN HIGHER EDUCATION CHOICE: INDIVIDUAL CUT-OFFS, THRESHOLD HETEROGENEITY, AND THE LIMITS OF AGGREGATE DETECTION 68
Umarov Shuhrat Bahodir o'g'li
SANOAT KORXONALARIDA DAVLAT XARIDLARI MOLIYAVIY RISKLARINI BOSHQARISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH 80
Xamdamov Sardor Farmon o'g'li
OLIY TA'LIM MUASSASALARI SAMARADORLIGIGA MARKETING STRATEGIYASI OMILLARINING TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (DEA–MALMQUIST–TOBIT MODELI ASOSIDA) 84
Egamov Sevinchbek
NEFT XOMASHYOSIDAN OLINUVCHI YO'L BITUMLARINING ASOSIY KOLLOID-KIMYOVIY VA EKSPLUATATSION XOSSALARIGA ULARNING UGLEVODOROD GURUH TARKIBINING TA'SIRINI TAHLILI 91
Abdullayeva Shoxista, Adizov Bobirjon
THE IMPACT OF LEADERSHIP SUPPORT ON ACADEMIC STAFF WORK EFFICIENCY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS 96
Sultonboyeva Munira, Sultanova Kamila

QURILISH MATERIALLARI BOZORIDA TALAB ELASTIKLIGINI MAHSULOT SEGMENTLARI KESIMIDA EKONOMETRIK BAHOLASH METODIKASI 103
Turdiyev Abdullo Sagdullayevich
IQLIM RISKLARI VA BANK KREDIT PORTFELI SIFATI: XITOY TAJRIBASI VA O‘ZBEKISTON UCHUN METODOLOGIK YONDASHUVLAR 110
Nasriyev Farxod
TIJORAT BANKLARIDA OPERATSION SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARI (“HAMKORBANK” ATB MISOLIDA) 116
Haydarova Shohista Shuhrat qizi
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI RESTRUKTURIZATSIYA QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 126
Maqsudov Bunyodjon Abdusamat o‘g‘li
O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO’LLARI 131
Umirov Abdisalom To‘rayevich
O‘ZBEKISTONDA SOLIQ SOHASIDA IDORALARARO INTEGRATSIYA HOLATI VA UNI TAHLIL QILISH .. 138
Ashirov Jamolbek Shuxrat o‘g‘li
TO‘QIMACHILIK KORXONALARINING SUN’IY INTELLEKTGA TAYYORGARLIGI VA INTEGRATSIYA DARAJASINI BAHOLOVCHI KOMPOZIT INDEKS (AI-TII) METODIKASI 147
Madrahimova Onajon Javlon qizi
O‘ZBEKISTONDA TEMIR YO‘L SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA TURIZMNING AHAMIYATI VA O‘RNI: TALAB, INVESTITSIYA VA INTEGRATSIYA KANALLARI TAHLILI 153
Nazarov Ulug‘bek Akbar o‘g‘li
DONNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBINI YAXSHILASH YO‘LLARI 159
Aitimbetob Koyshibek Orazbekovich
O‘ZBEKISTONDA UY-JOY QURILISHINING HUDUDIY NOMU-TANOSIBLIGI VA 2040-YILGACHA BELGILANGAN MAQSADLI KO‘RSATKICHLARGA ERISHISH MASALALARI 166
Abdimaitov Saidumarxon Mansur o‘g‘li
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АНАЛИТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В УПРАВЛЕНИИ ОПЕРАЦИОННЫМ РИСКОМ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ 171
Курбонов Илхом Жумакулович
TA’LIM XARAJATLARI SAMARADORLIGI: XALQARO QIYOSIY TAHLIL VA O‘ZBEKISTON UCHUN INSTITUTSIONAL SABOQLAR 177
Temirov Muhammad Maxmud o‘g‘li
KASE VA UCI INDEKSLARIDA RISK, O‘ZGARUVCHANLIK VA PROGNOZ BARQARORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH 182
Raximov Abduxalil Toshbotirovich
O‘ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK TARMOQLARINING 2030-YILGACHA RIVOJLANISHINI ARIMA VA SARIMA MODELLARI ASOSIDA PROGNOZLASH 192
Xaitova Rushana O‘ktamovna
MINTAQADA AHOLINING TAKROR BARPO BO‘LISHI VA UNING IQTISODIY RIVOJLANISH BILAN O‘ZARO ALOQASI 196
Saidov Jo‘rabek Nosirxonovich
DAVLAT XARIDLARIDA BUDJET TEJAMKORLIGINI BELGILOVCHI OMILLARNING PANEL EKONOMETRIK TAHLILI 201
Axmedjanov Sardorbek
SUN’IY INTELLEKTNING JAHON MEHNAT BOZORIGA TA’SIRI: IQTISODIY O‘SISH, BANDLIK VA DAROMADLAR TENGSIZLIGI 206
Sohibov Azizbek, Karimova Komila
O‘ZBEKISTONDA DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARDA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH 211
Axmedov Xasan Ruzibayevich

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

ТЕРМОДИНАМИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ И ПРОМЫШЛЕННАЯ ПРОВЕРКА ДЕСУЛЬФУРАЦИИ СТАЛИ 20ГЛ КАЛЬЦИЙ-АЛЮМИНАТНЫМ ФЛЮСОМ КРФ-90 В ИНДУКЦИОННОЙ ТИГЕЛЬНОЙ ПЕЧИ 216
Уразбаев Талгат, Турсунов Нодиржон, Абдуназаров Бахтиёр, Абдухаликов Ердаулет
VELSLASH KLINKER CHIQINDISIDAN QIMMATBAHO METALLARNI KOMPLEKS AJRATIB OLISH TEXNOLOGIYASINI TADQIQ QILISH 222
Qayumov Oybek, Uzoqov Shaxrizod, Qurbonov Bunyod
MONETAR SIYOSAT SHOKLARINING O‘ZBEKISTON EKSPORTI VA IMPORTIGA ASIMMETRIK TA’SIRI 227
Solijonova Muxlisaxon Azamatjon qizi
YANGI LOGISTIKA MARKAZI ORQALI YUK TASHISHNING TEXNIK-IQTISODIY ASOSLARI 232
Zohidov Muhriddin, Jumayev Sherzod
BANKLARDA SUN’IY INTELLEKTNI MAS’ULIYATLI BOSHQARISH: XALQARO MODELLAR VA O‘ZBEKISTONDA BARQAROR MOLIYAVIY RIVOJLANISH UCHUN MOSLASHTIRISH YO‘NALISHLARII . 240
Mirsoatov Alisher Qudratullayevich
KORXONALARDA EKOLOGIK XARAJATLAR HISOBINI TASHKIL ETISHNING AMALDAGI HOLATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 249
Muxammadjanov Muzaffar Muxammadsolixovich
MAROSIM VA URF-ODATLARDA GASTRONOMIK KONSEPTLARNING LINGVOMADANIY IFODALANISHI .. 254
Halimova Mahbuba To‘raqulovna
O‘ZBEKISTONDA PENSIYA QAMROVINI KENGAYTIRISH: NORASMIY BANDLIK VA O‘ZINI O‘ZI BAND QILGANLAR UCHUN IJTIMOIY SUG‘URTA MEXANIZMLARI 259
Oqiljonov Azizjon Olimjon o‘g‘li
DAVLAT BUDJETINING IQTISODIY KATEGORIYA SIFATIDAGI MOHIYATI, MAQSADI VA VAZIFALARI ... 265
Sharipov Zafar Bazarovich
ИССЛЕДОВАНИЕ ОСОБЕННОСТЕЙ СОСТАВА ГАЗОВОЙ ФАЗЫ ПРИ ДУГОВОЙ СВАРКЕ ПОД СЛОЕМ ФЛЮСА НИЗКОУГЛЕРОДИСТЫХ И НИЗКОЛЕГИРОВАННЫХ СТАЛЕЙ 271
Эрматов Зиёдулла, Рахматуллаева Нозима, Гальперин Леонид
CHAKANA SAVDO XIZMATLARINI KO‘RSATUVCHI KORXONALARDA SAMARADORLIKNI IFODALOVCHI KO‘RSATKICHLAR TIZIMI VA ULARNING TASNIFI 276
Abduganiyev Oybek Akmaljon o‘g‘li
XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT TUSHUNCHASINING O‘ZIGA XOS TASNIFLANISHI 281
Raxmonov Aziz Iskandarovich
XIZMATLAR SOHASIDA SAMARADORLIKNI IFODALOVCHI KO‘RSATKICHLAR TIZIMI VA ULARNING TASNIFI 286
Axmedov Mexrojxon Ma’rufjon o‘g‘li
SUT TANNARXINING OMILLI TAHLILI VA XARAJATLARNI KAMAYTIRISH ZAXIRALARI (SAMARQAND VILOYATIDAGI FERMER XO‘JALIGI MISOLIDA) 290
Karimov Ikromjon, Alikulov Abdimo‘min
AGROKLASTERLARDA MATERIALLAR HARAKATI VA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI BO‘YICHA SEGMENTAR HISOBOT TUZISH TARTIBI 295
Aliqulov G‘olib Abdimo‘minovich
SUG‘URTA KOMPANIYASINING ANDERRAYTING NATIJALARI VOLATILLIGINI KAMAYTIRISHDA NOMUTANOSIB QAYTA SUG‘URTA DASTURINI OPTIMALLASHTIRISH (JAVOBGARLIK PORTFELI MISOLIDA) 303
Ubaydullaeva Nargiza Ravshanovna
SOLIQ TUSHUMLARINI PROGNOZLASHTIRISHDA ELASTIKLIK VA MOSLASHUVCHANLIK KO‘RSATKICHLARIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI 308
Allakuliyev Akmal Baltayevich

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA OLIY TA'LIMDA KADRLAR SALOHIYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI 313
Kamilxo'jayeva Malikaxon, Yuldashov Isomiddin
WAYS TO IMPROVE THE MARKETING EFFECTIVENESS OF "O'ZTEMIRYO'LYO'LOVCHI" JSC 319
Uktamov Sarvar Atxam o'g'li
TA'LIM XARAJATLARINI DASTURIY BUDJETLASHTIRISH ORQALI MOLIYALASHTIRISHNI OSHIRISHNING ILMIY-AMALIY YECHIMLARI: XORIJIY TAJRIBA VA TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH 324
Quvatov Feruz Qaxramonovich
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ИНВЕСТОРЫ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ 328
Камилова Севара Анваровна
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUV JARAYONLARIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR 339
Raxmatov Ziyodullo Nosirovich
NOTIJORAT TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY RESURSLARDAN FOYDALANISHDA XARAJATLAR VA ZAXIRA MABLAG'LARI NISBATINI MAQBULLASHTIRISH 345
Toshpulatov Farruxbek Asronbek o'g'li
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ БАНКОВСКОГО ТРУДА И ИЗМЕНЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-КВАЛИФИКАЦИОННЫХ ТРЕБОВАНИЙ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ УЗБЕКИСТАНА 351
ПУЛАТОВ Дилшод Акмалевич
ФИНАНСОВАЯ ОЦЕНКА КАЧЕСТВА ПРОГНОЗИРОВАНИЯ УСЛОВНЫХ ОБЯЗАТЕЛЬСТВ ГОСУДАРСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ 358
Алиев Улугбек Маннонович
DAVLAT VA XUSUSIY BANKLAR AKSIYALARINING DAROMADLILIGI, RISKI VA BOZOR BAHOSI 363
Abdullayev Suxrobiddin Ismoilovich
QURILISH-PUDRAT TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA DAROMADLARNI TAN OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH 371
Tulovov Erkinjon To'lqin o'g'li
TIJORAT BANKLARI XARAJAT SAMARADORLIGINING XALQARO QIYOSIY TAHLILI 376
Absamatov Asqar Ergashovich
TEMIR YO'L MASHINASOZLIGINI SANOAT KOOPERATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI 387
Yuldasheva S.A

TEMIR YO‘L MASHINASOZLIGINI SANOAT KOOPERATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

Yuldasheva S.A
Toshkent davlat transport universiteti professori, PhD.
yuldashevasaodat64@gmail.com
ORCID: 0000-0002-7487-5622

Annotatsiya. Maqolada temir yo‘l mashinasozligini sanoat kooperatsiyasi asosida rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari tadqiq etilgan. Klaster, tranzaksion xarajatlar, relyatsion yondashuv va global qiymat zanjirlari nazariyalari tizimlashtirilib, tarmoqda sanoat kooperatsiyasining mualliflik ta’rifi taklif etilgan. Kooperatsiyaning uch darajali konseptual modeli ishlab chiqilgan, harakatlanuvchi tarkibga bo‘lgan talab va mavjud ishlab chiqarish quvvatlari o‘rtasidagi nomutanosiblik baholangan hamda kooperatsiyaning rivojlanganlik darajasini ifodalovchi integral indeksni hisoblash uslubiyati asoslangan.

Kalit so‘zlar: temir yo‘l mashinasozligi, sanoat kooperatsiyasi, mahalliylashtirish, harakatlanuvchi tarkib, qiymat zanjiri, tranzaksion xarajatlar, integral indeks.

Аннотация. В статье исследованы теоретико-методологические основы развития железнодорожного машиностроения на основе промышленной кооперации. Систематизированы теория кластеров, теория транзакционных издержек, реляционный подход и теория глобальных цепочек создания стоимости, предложено авторское определение промышленной кооперации в отрасли. Разработана трёхуровневая концептуальная модель кооперации, оценён дисбаланс между спросом на подвижной состав и имеющимися производственными мощностями, обоснована методика расчёта интегрального индекса, отражающего уровень развития кооперации.

Ключевые слова: железнодорожное машиностроение, промышленная кооперация, локализация, подвижной состав, цепочка создания стоимости, транзакционные издержки, интегральный индекс.

Abstract. The article examines the theoretical and methodological foundations of developing railway engineering through industrial cooperation. Cluster theory, transaction cost theory, the relational approach, and global value chain theory are systematized, and the author’s definition of industrial cooperation in the sector is proposed. A three-level conceptual model of cooperation is developed, the mismatch between demand for rolling stock and existing production capacity is assessed, and a methodology for calculating a composite index reflecting the level of cooperation development is substantiated.

Keywords: railway engineering, industrial cooperation, localization, rolling stock, value chain, transaction costs, composite index.

KIRISH

Temir yo‘l transporti O‘zbekiston iqtisodiyotida yuk va yo‘lovchi tashishning tayanch bo‘g‘ini bo‘lib, uning raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan harakatlanuvchi tarkib (lokomotiv, yuk va yo‘lovchi vagonlari) parkining holati hamda uni yangilash va ta’mirlash bilan shug‘ullanuvchi mashinasozlik bazasiga bog‘liq. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ[1] (keyingi o‘rinlarda — O‘TY) tomonidan taqdim etilgan 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan harakatlanuvchi tarkibni yangilash dasturida 10 ming dona yangi yuk vagonini ishlab chiqarish va 6 mingtasini kapital ta’mirlash ko‘zda tutilgan [1]. Holbuki, 2023–2025-yillarda 105 mln AQSH dollarlik loyiha doirasida 1590 dona yarim ochiq yuk vagoni ishlab chiqarilgan [2]. Bunday hajmlarni bitta korxona doirasida emas, balki metallurgiya, quyuv, elektrotexnika korxonalari va kichik biznes subyektlarini qamrab oluvchi sanoat kooperatsiyasi[2] orqali ta’minlash mumkin.

1 O‘TY — “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ; mamlakat umumiy foydalanishdagi temir yo‘l infratuzilmasi va harakatlanuvchi tarkibining asosiy egasi hamda vagonsozlik korxonalarining asosiy buyurtmachisi.

2 Sanoat kooperatsiyasi — mustaqil korxonalarning yakuniy mahsulotni birgalikda ishlab chiqarish maqsadida ixtisoslashuv va o‘zaro yetkazib berishga asoslangan barqaror ishlab chiqarish aloqalari.

Mazkur yo‘nalish davlat siyosatining ustuvor vazifalari qatoriga kiritilgan: Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi [3] va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi [4] sanoatda qo‘shilgan qiymatni oshirishni, PQ-99-son qaror [5] esa sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratishni nazarda tutadi. Tarmoq darajasida “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi Qonun [6] va PQ-329-son qaror [7] sohada bozor munosabatlarini va xususiy sektor ishtirokini kengaytirishga yo‘naltirilgan. 2026-yil 6-fevraldagi Farmon [8] bilan Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari agentligi tashkil etilib, kafolatli xarid shartnomalari va “yetkazib beruvchilarni rivojlantirish”[3] tamoyili joriy etildi.

Shu bilan birga, 2022-yilda O‘TYning mahsulot ishlab chiqarish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirish dasturini atigi 10 foizga bajargani qayd etilgan [9]. Bu tarmoqda kooperatsion aloqalarni shakllantirishning nazariy-uslubiy asoslari yetarli ishlab chiqilmaganidan dalolat beradi.

Tadqiqot maqsadi — temir yo‘l mashinasozligini sanoat kooperatsiyasi asosida rivojlantirishning nazariy asoslarini tizimlashtirish va uni baholashning uslubiy yondashuvini ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ishlab chiqarishni korxonalararo tashkil etish masalasi iqtisodiy nazariyada uzoq tarixga ega. A. Marshall tarmoq korxonalarining hududiy jamlanishidan kelib chiqadigan tashqi samaralarni — ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar, malakali mehnat bozori va bilimlar “oqib o‘tishi”ni asoslab bergan [10]. R. Coase firma chegaralarini bozor va ichki tashkil etish xarajatlarini taqqoslash orqali izohlagan [11], O. Williamson esa tranzaksion xarajatlar[4] nazariyasida aktivlar spetsifikligi[5] yuqori bo‘lgan holatlarda uzoq muddatli shartnomalar va gibrid shakllar samarali ekanini ko‘rsatgan [12]. Harakatlanuvchi tarkib butlovchilari (aravacha, avtoqo‘shgich, g‘ildirak juftligi, tormoz uskunalari) aynan shunday aktivlar sirasiga kiradi.

G. Richardson kooperatsiyani bozor va iyerarxiyadan farqlanuvchi uchinchi muvofiqlashtirish mexanizmi sifatida talqin qilib, u “bir-birini to‘ldiruvchi, ammo o‘xshash bo‘lmagan” faoliyatlarni bog‘lashini ta’kidlagan [13]. M. Porter raqobat ustunligini klasterlar — o‘zaro bog‘liq korxonalar va institutlar majmui orqali izohlagan [14]. J. Dyer va H. Singh relyatsion yondashuvda hamkorlarning birgalikdagi spetsifik investitsiyalari, bilim almashinuvi va samarali boshqaruv relyatsion renta[6] manbai ekanini asoslagan [15]. G. Gereffi va hammualliflari global qiymat zanjirlarini boshqarishning besh turini (bozor, modulli, relyatsion, bog‘liq, iyerarxik) ajratgan [16], R. Kaplinsky va M. Morris esa zanjir tahlilining amaliy uslubiyatini ishlab chiqqan [17].

Rivojlanish iqtisodiyotida A. Hirschmanning “orqaga” va “oldinga” bog‘lanishlar g‘oyasi [18], S. Lallning texnologik imkoniyatlar konsepsiyasi [19] va D. Rodrikning sanoat siyosatini davlat va biznesning birgalikdagi “kashfiyot jarayoni” sifatidagi talqini [20] mahalliylashtirish siyosatining nazariy asosini tashkil etadi. Transport iqtisodiyoti bo‘yicha N.P. Tereshina va hammualliflari ishlarida harakatlanuvchi tarkib hayotiy sikli xarajatlari tahlil qilingan [21].

Mahalliy tadqiqotlarda A.A. Zoxidov transport tizimini boshqarish mexanizmlarini [22], F.S. Saidmurodov temir yo‘l tizimini davlat tomonidan tartibga solish va vagon ta’mirlash quvvatlarini inventarizatsiya qilish zaruratini [23], X.A. Egamberdiyeva innovatsion yuk vagonlaridan foydalanish samaradorligini baholash metodikasini [24], SH.SH. Fayziyeva sanoatni tarkibiy o‘zgartirish istiqbollarini [25] tadqiq etgan. Biroq bu ishlarda temir yo‘l mashinasozligidagi sanoat kooperatsiyasi alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Nazariy yondashuvlarning tarmoq uchun ahamiyati 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval.
Sanoat kooperatsiyasiga oid nazariy yondashuvlar va ularning temir yo‘l mashinasozligi uchun ahamiyati[7]

Yondashuv	Namoyandalar	Asosiy g‘oya	Tarmoq uchun ahamiyati
Aglomeratsiya va klaster	A. Marshall; M. Porter	Tashqi samaralar, hududiy jamlanish	Vagonsozlik zavodlari atrofida yetkazib beruvchilar klasterini shakllantirish
Tranzaksion xarajatlar	R. Coase; O. Williamson	“Ishlab chiqarish yoki sotib olish” tanlovi, gibrid shakllar	Spetsifik butlovchilar uchun uzoq muddatli kooperatsion shartnomalar

3 Vendor development — yirik buyurtmachi tomonidan mahalliy yetkazib beruvchilarning texnologik va boshqaruv salohiyatini maqsadli oshirish amaliyoti.
4 Tranzaksion xarajatlar — bozor bitimlarini izlash, kelishish, shartnoma ijrosini nazorat qilish bilan bog‘liq xarajatlar.
5 Aktivlar spetsifikligi — muayyan hamkor uchun yaratilib, boshqa maqsadda foydalanilganda qiymatini yo‘qotadigan aktivlar xususiyati (masalan, vagon ramasi uchun maxsus quyuv qoliplari).
6 Relyatsion renta — hamkorlar birgalikda yaratadigan, ularning har biri alohida erisha olmaydigan qo‘shimcha foyda.
7 Manba: 1-jadvalda keltirilgan adabiyotlar asosida muallif ishlanmasi.

Yondashuv	Namoyandalar	Asosiy g‘oya	Tarmoq uchun ahamiyati
Sanoat kooperatsiyasi va relyatsion yondashuv	G. Richardson; J. Dyer, H. Singh	Bir-birini to‘ldiruvchi faoliyatlarni muvofiqlashtirish, relyatsion renta	Quyuv, metallurgiya va vagonsozlikni yagona texnologik zanjirga bog‘lash
Global qiymat zanjirlari	G. Gereffi; R. Kaplinsky	Zanjirni boshqarish turlari, yuksalish (upgrading)	Xorijiy hamkorlar bilan texnologiya transferi va boshqaruv shaklini tanlash
Rivojlanish iqtisodiyoti	A. Hirschman; S. Lall; D. Rodrik	Tarmoqlararo bog‘lanishlar, texnologik imkoniyatlar	Mahalliylashtirishni bosqichma-bosqich chuqurlashtirish

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqotda tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy va qiyosiy tahlil, institutsional (me’yoriy-huquqiy hujjatlar) tahlil, balans usuli (talab va quvvatlarni taqqoslash) hamda indeks usulidan foydalanildi. Axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari [26], O‘TY faoliyatiga oid rasmiy axborotlar va xalqaro sanoat tahliliy manbalari tashkil etdi. Talab va quvvat nomutanosibligi yillik o‘rtacha ko‘rsatkichlarni taqqoslash orqali, integral indeks esa ko‘rsatkichlarni min-max usulida normallashtirish va ekspert vaznlari bilan agregatlash orqali shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tushunchaviy apparatni aniqlashtirish. Adabiyotlar tahlili asosida quyidagi mualliflik ta’rifi taklif etiladi: *temir yo‘l mashinasozligida sanoat kooperatsiyasi — harakatlanuvchi tarkib, uning butlovchi qismlari va ta’mirlash xizmatlarini ishlab chiqarishda texnologik jihatdan bir-birini to‘ldiruvchi korxonalar o‘rtasida uzoq muddatli shartnomalar, qo‘shma loyihalar va texnologiya transferi asosida shakllanadigan, tranzaksion xarajatlarni kamaytirish, mahalliy qo‘shilgan qiymat ulushini oshirish va quvvatlardan muvozanatli foydalanishga qaratilgan barqaror ishlab chiqarish-iqtisodiy munosabatlar tizimi.* Ta’rif tarmoqning uch xususiyatini aks ettiradi: mahsulotning qat’iy texnik reglament va sertifikatlashtirish talablariga bo‘ysunishi; ishlab chiqarish va ta’mirlash siklining birligi; asosiy buyurtmachi sifatida O‘TYning ustun mavqei (monopsoniya).


Kooperatsiyaning konseptual modeli. Nazariy asoslar uch darajali modelga birlashtirildi (1-rasm). Birinchi daraja — O‘TY tarkibidagi Toshkent quyuv-mexanika va Andijon mexanika zavodlari [1] o‘rtasidagi xolding ichki kooperatsiyasi. Ikkinchi daraja — tarmoqlararo milliy kooperatsiya: masalan, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, O‘TY va Andijon mexanika zavodi o‘rtasidagi memorandum asosida 501,76 mlrd so‘mlik loyiha doirasida 115 tonnalik olti o‘qli dumpkar[8] vagonlari mahalliylashtirildi [27]. Uchinchi daraja — xalqaro texnologik kooperatsiya: Toshkent yo‘lovchi vagonlarini qurish va ta’mirlash zavodi ulushining keyinchalik xususiylashtirish sharti bilan xorijiy mashinasozlik guruhi bilan bog‘liq kompaniyaning ishonchli boshqaruviga berilishi [28].

8 Dumpkar — yukni yon tomonga ag‘darib tushiradigan o‘zi ag‘darar yuk vagoni.



1-rasm. Temir yo'l mashinasozligida sanoat kooperatsiyasining konseptual modeli[9]

Talab va quvvatlar nomutanosibligi. Mamlakatda 2025-yilda sanoat mahsuloti hajmi 1 101,1 trln so'mni, o'sish sur'ati 106,8 foizni tashkil etgan bo'lsa-da [26], vagonsozlik quvvatlari yangilanish talabidan ortda qolmoqda. Ixtisoslashgan ikki korxonaning birgalikdagi quvvati yiliga 1000–1500 dona yuk vagoni deb baholanadi [1]. 2026–2030-yillardagi 10 ming dona dasturni bajarish uchun esa yiliga o'rtacha 2000 dona vagon talab etiladi (2-rasm).



2-rasm. Yuk vagonlari ishlab chiqarish hajmi, talab va mavjud quvvat (dona/yil)[10]

Hisob-kitoblarga ko'ra yillik defitsit 500–1000 donani, ya'ni talabning 25–50 foizini tashkil etadi; bunga yiliga o'rtacha 1200 dona kapital ta'mir yuklamasi qo'shiladi. Mazkur uzilishni faqat yig'uv quvvatlarini kengaytirish bilan emas, balki butlovchilar ishlab chiqarishini ikkinchi darajali kooperatsiya orqali tashqi ixtisoslashgan korxonalarga taqsimlash bilan bartaraf etish maqsadga muvofiq.

9 Muallif ishlanmasi.
10 [2; 1] ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi: 2023–2025-yillar uchun 1590:3≈530; 2026–2030-yillar talabi 10 000:5=2000.

Baholashning uslubiy yondashuvi. Kooperatsiya rivojlanganligini baholash uchun besh komponentli integral indeks taklif etiladi (2-jadval):

$I_k = \Sigma w_j \cdot x_j^*$, $x_j^* = (x_j - x_{j\,min}) / (x_{j\,max} - x_{j\,min})$, $\Sigma w_j = 1$,

bu yerda:

x_j^* — j-ko‘rsatkichning normallashtirilgan qiymati,

w_j — Delfi usulida[11] aniqlanadigan vazn.

I_k < 0,4 — past, 0,4–0,6 — o‘rta, 0,6–0,8 — yuqori, 0,8 dan yuqori — integratsiyalashgan kooperatsiya darajasi.

2-jadval.
Kooperatsiya integral indeksining tarkibi[12]

Komponent	Ko‘rsatkich mazmuni	Formula	Vazn
Mahalliylashtirish	Mahalliy qo‘shilgan qiymatning mahsulot qiymatidagi ulushi	$L = VA_m / Q$	0,30
Kooperatsion bog‘liqlik	Mahalliy yetkazib beruvchilardan xaridlar ulushi	$C = Z_m / Z$	0,25
Quvvatlardan foydalanish	Haqiqiy ishlab chiqarishning quvvatga nisbati	$U = Q_f / Q_q$	0,20
Texnologik o‘zlashtirish	O‘zlashtirilgan yangi butlovchilar turining rejaga nisbati	$T = N_f / N_r$	0,15
Tranzaksion samaradorlik	Tranzaksion xarajatlarning xarid hajmidagi ulushiga teskari ko‘rsatkich	$S = 1 - TX / Z$	0,10

Olingan natijalarni G. Gereffi tipologiyasi [16] nuqtayi nazaridan baholasak, uchinchi darajadagi kooperatsiya hozircha “bog‘liq” (captive) boshqaruv turiga yaqin: texnologik va boshqaruv qarorlari xorijiy hamkor tomonida jamlangan. Bu texnologiya transferini tezlashtirsa-da, uzoq muddatda texnologik qaramlik xavfini tug‘diradi. SHu sababli S. Lall [19] ta’kidlagan mahalliy texnologik imkoniyatlarni shakllantirish va “relyatsion” boshqaruvga o‘tish uchun ikkinchi darajadagi milliy yetkazib beruvchilar tarmog‘ini maqsadli rivojlantirish zarur. 2026-yil 6-fevraldagi Farmonda belgilangan kafolatli xarid shartnomalari va texnologiya transferi xarajatlarini subsidiyalash [8] aynan shu vazifaga xizmat qiladi.

Tranzaksion xarajatlar nazariyasiga ko‘ra [12], O‘TYning monopsoniya mavqei kichik yetkazib beruvchilar uchun “tutib qolish” (hold-up) xavfini oshiradi va ularning spetsifik investitsiyalarga tayyorligini pasaytiradi. 2022-yildagi kooperatsiya dasturining past ijrosi [9] ham ma’muriy rejalashtirish shartnomaviy kafolatlar bilan qo‘llab-quvvatlanmasa, samara bermasligini ko‘rsatadi. Tadqiqot cheklovi sifatida korxonalar kesimidagi xarid va qo‘shilgan qiymat ma’lumotlarining ochiq emasligini qayd etish lozim; shu bois taklif etilgan indeks keyingi tadqiqotlarda empirik ma’lumotlar asosida aprobatsiya qilinishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Temir yo‘l mashinasozligida sanoat kooperatsiyasi aktivlar spetsifikligi yuqori, texnik reglamentlar qat’iy va buyurtmachi monopsoniya mavqeiga ega bo‘lgan muhitda shakllanadi; uning nazariy asosini klaster, tranzaksion xarajatlar, relyatsion va qiymat zanjiri yondashuvlarining sintezi tashkil etadi.

2. Taklif etilgan mualliflik ta’rifi kooperatsiyani ishlab chiqarish va ta’mirlash siklining birligi hamda mahalliy qo‘shilgan qiymatni oshirish maqsadi bilan bog‘laydi.

3. Uch darajali konseptual model (xolding ichki, tarmoqlararo milliy va xalqaro texnologik kooperatsiya) davlat qo‘llab-quvvatlash choralarini darajalar bo‘yicha tabaqalashtirish imkonini beradi.

4. 2026–2030-yillarda yuk vagonlariga talab mavjud quvvatdan yiliga 500–1000 donaga oshadi; bu butlovchilar ishlab chiqarishini milliy yetkazib beruvchilarga kooperatsiya asosida taqsimlashni taqozo etadi.

5. Kooperatsiya integral indeksini O‘TY va Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari agentligining monitoring tizimiga kiritish, tarmoq bo‘yicha mahalliylashtirish dasturlarini esa ushbu indeks maqsadli qiymatlariga bog‘lash tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. ROLLINGSTOCK Agency. (2025, November 18). Uzbekistan unveils five-year rolling stock renewal plan. https://rollingstockworld.com/locomotives/uzbekistan-unveils-five-year-rolling-stock-renewal-plan/

2. Spot.uz. (2026, 25-fevral). O‘zbekistonda 2026-yili jami 954 dona yuk va 70 dona yo‘lovchi vagoni ishlab chiqariladi. https://www.spot.uz/oz/2026/02/25/wagon-production/

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-5841063

11 Delfi usuli — ekspertlar fikrini bir necha anonim so‘rov raundi orqali kelishtirish usuli.

12 Muallif ishlanmasi. Vaznlar tavsiyaviy bo‘lib, ekspert so‘rovi natijasida aniqlashtiriladi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-yanvardagi “Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-99-son Qarori. https://lex.uz/uz/docs/-5836411

5. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 27-noyabrdagi “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida” O‘RQ-1006-son Qonuni. https://lex.uz/uz/docs/-7239390?ONDATE=01.01.2025

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktabrdagi “Temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-329-son Qarori. https://lex.uz/docs/-6631602?ONDATE=11.10.2023%2000

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 4-fevraldagi “Mahalliy ishlab chiqarish va sanoat kooperatsiyasini yangi tizim asosida rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-17-son Farmoni.
https://www.lex.uz/pdfs/-8037362

8. Kun.uz. (2022, 11-mart). Prezident Farmatsevtika agentligi direktoriga hayfsan berdi, uning ikkala o‘rinbosari ishdan olindi.
https://kun.uz/news/2022/03/11/prezident-farmatsevtika-agentligi-direktoriga-hayfsan-berdi-uning-ikkala-orinbosari-ishdan-olindi

9. Marshall, A. (1890). Principles of economics. Macmillan.

10. Coase, R. H. (1937). The nature of the firm. Economica, 4(16), 386–405. https://doi.org/10.1111/j.1468-0335.1937.tb00002.x

11. Williamson, O. E. (1985). The economic institutions of capitalism: Firms, markets, relational contracting. Free Press.

12. Richardson, G. B. (1972). The organisation of industry. The Economic Journal, 82(327), 883–896. https://doi.org/10.2307/2230256

13. Porter, M. E. (1990). The competitive advantage of nations. Free Press.

14. Dyer, J. H., & Singh, H. (1998). The relational view: Cooperative strategy and sources of interorganizational competitive advantage. Academy of Management Review, 23(4), 660–679. https://doi.org/10.5465/amr.1998.1255632

15. Gereffi, G., Humphrey, J., & Sturgeon, T. (2005). The governance of global value chains. Review of International Political Economy, 12(1), 78–104.
https://doi.org/10.1080/09692290500049805

16. Kaplinsky, R., & Morris, M. (2001). A handbook for value chain research. International Development Research Centre.

17. Hirschman, A. O. (1958). The strategy of economic development. Yale University Press.

18. Lall, S. (1992). Technological capabilities and industrialization. World Development, 20(2), 165–186. https://doi.org/10.1016/0305-750X(92)90097-F

19. Rodrik, D. (2004). Industrial policy for the twenty-first century (CEPR Discussion Paper No. 4767). Centre for Economic Policy Research.

20. Терешина, Н. П., Потапова, Е. В., Терёшина, Н. В., & Епишкин, И. А. (2018). Экономика транспорта: учебное пособие. РУТ (МИИТ).

21. Zoxidov, A. A. (2018). Markaziy Osiyo transport tizimini samarali boshqarish mexanizmini takomillashtirish [Iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati]. Toshkent.

22. Saidmurodov, F. S. (2024). Temir yo‘l transport tizimini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi. Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali, 4(11), 579–590.

23. Egamberdiyeva, X. A. (2024). O‘zbekiston temir yo‘llarida innovatsion yuk vagonlarni qo‘llash samaradorligini aniqlash metodikasini takomillashtirish. Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali, 4(05), 196–202.

24. Fayziyeva, Sh. Sh. (2023). O‘zbekiston sanoati rivojlanishining istiqbollari. Innovatsion iqtisodiyot, (3). https://ojs.qmii.uz/index.php/ej/article/view/494

25. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2026). O‘zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishi: 2025-yil yanvar–dekabr [Press-reliz]. https://stat.uz

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**


+998 93 718 40 07

https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal

t.me/yait_2100